SON SO‘Z TURKUMI GAZETA MATNLARI O‘ZIGA XOS USLUBIY JIHATINI KO‘RSATUVCHI GRAMMATIK KATEGORIYA SIFATIDA

Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, DSc
dilakhmedova@mail.ru

Annotatsiya: Matnda raqamlar orqali ifodalangan sonlar hayotning barcha yangi sohalarini qamrab olib, ommaviy axborot vositalarida o‘z aksini topmoqda. Biz iqtisod, statistika, moliya siyosati va hatto sport xronologiyasi mavzulariga bag‘ishlangan nashrlarni sonlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Maqolada gazeta matnlarida son so‘z turkumining o‘rni, uning uslubiy xususiyatlari yoritilgan.

Abstract: Numbers expressed in the text by numbers cover all new areas of life and are reflected in mass media. We cannot imagine the publications devoted to the topics of economics, statistics, financial policy and even sports chronology without numbers. The article describes the role of the word group in newspaper texts and its stylistic features.

Kalit so‘zlar: gazeta publitsistik uslubi, son so‘z turkumi, axborot aniqligi, infografika

Keywords: journalistic style of the newspaper, vocabulary, accuracy of information, infographics

Sonlar o‘quvchi e’tiborini o‘ziga tortadigan va uning ongida qoladigan markerlar vazifasini bajaradi, buning natijasida hisob-kitob obyektlari matnning boshqa birliklariga nisbatan yuqori mavqyega ega bo‘lib, qabul qilishda afzalliklarga ega bo‘ladi [3:69]. Oxirgi vaqtlarda gazeta matnlari tarkibida sonlarning qo‘llanish holatlari ko‘payib borayotgani haqida ko‘p olimlar ta’kidlab o‘tganlar [4:47]. Sonlar ommaviy axborot vositalari tomonidan aks etgan yanada yangi sohalarni qamrab olib, gazeta matnlarini yangicha qabul qilishga olib kelmoqda [3:50]. Bu esa maqola mualliflaridan mazkur jarayon qonun-qoidalarni tushunish, uning asosiy tendensiyalarini bilish, gazeta sahifalaridagi sonlar oqimini



boshqara olish mahoratini talab etadi. Sonlar dinamikasini o‘rganish, gazeta matnlari tarkibida ularning o‘rnini tahlil qilish, gazeta matnlarida sonlarning asosiy funksiyalarini aniqlash imkonini beradi. Son predmet miqdori va ularni sanashda tartibni anglatuvchi so‘z turkumi sifatida publitsistikada keng qo‘llanadi. Ushbu so‘z turkumining qo‘llanish doirasi, asosan, aniq fanlar doirasida bo‘lsada, axborotning aniqligini ta'minlovchi so‘z turkumi sifatida gazeta matnlarida keng foydalaniladi.

Gazeta matnlarida son so‘z turkumining aktiv qo‘llanishi uning axborot berish vazifasi hamda muallif ma’lumotining aniq bo‘lishi bilan bog‘liq. Gazeta matnlarida beriladigan xabarning aniq faktlarga asoslangan bo‘lishi zarurati bu matnlarda sonlarning faol qo‘llanishidagi asosiy omil sanaladi. Shu bilan birga, sonlar gazeta matnlarining o‘ziga xos uslubiy jihatini ham ajratib ko‘rsatadigan grammatik kategoriyalar qatoriga kiradi. Son so‘z turkumi – publitsistik uslubning berilayotgan axborotning aniq bo‘lishida xizmat qiluvchi eng zarur elementlaridan hisoblanadi.

Sonlarning vazifasi faqat sof faktik ma'lumotni berish bilan chegaralanmaydi. Ya’ni ular faqat aniq ma'lumot berishda qo‘llanmay, emotsional-ekspressiv ma'noni ham anglatib kelishi mumkin. Masalan, o‘quvchini terroristik akt, zilzila, baxtsiz hodisa natijasida qurbon bo‘lganlar soni, jinoyatchilik bilan kurashish ko‘rsatkichi kabilar haqidagi ma'lumot larzaga ketirmasdan iloji yo‘q. Bunday hollarda son o‘zining informativ vazifasini yo‘qotmagan holda, nutqda ekspressivlikni oshirishda xizmat qiluvchi asosiy omilga aylanadi. Boshqa uslublarda son so‘z turkumi uslubiy neytrallikni saqlab qolsa-da, publitsistik uslubda ma'lum vaziyatda ularning informativ vazifasi ekspressiv vazifa bilan murakkablashadi.

Eshitishga mo‘ljallangan matnlarda sonlardan keng foydalanish tinglovchi uchun ma’lumotni qabul qilishni murakkablashtirgani sabab ma’ruzalarda iloji boricha sonlardan foydalanishda me’yorga rioya qilish kerak. Shundan kelib chiqib, hozirgi kunda statistik ma’lumotlar keltirilgan ma'ruzalar ekranda



namoyish etiladi. Matnda sonni qo‘llash ma’lumotni ratsional ravishda yetakazish va ma’lumotni ishonchliligini ko‘rsatish usullaridandir. Jurnalistlar iqtisodiy sharh, ijtimoiy fikr tahlili, iqtisodchi, statist, sotsiolog, siyosatshunos, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassislari bilan suhbatda o‘quvchi bilan sonlar orqali muloqot qiladi. Gazeta maqolasida keltirilgan son o‘ziga diqqatni jalb etib, bir oz fikrlashga majbur qiladi. Lekin maqolada sonlardan foydalanishda ham me'yorni unutmaslik zarur.

Hozirda gazeta sahifalarida sonlarning qo‘llanishi oshib borayotganini kuzatish mumkin. Sonlarning publitsistik matnlarda xususan gazeta matnlarida qo‘llanishi borasida I.Golub, V.Kostomarov, G.Solganik, S.Smetanina, K.Nakoryakova va boshqalar o‘z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, K.Nakoryakova “Son – jurnalist uchun faktik materialning diqqat, aniqlikni talab etadigan murakkab shakli” [2] ekanligini ta’kidlaydi. Eron gazetalarida son so‘z turkumining qo‘llanishi tahlil etilganda bu so‘z turkumi barcha sahifalarda, ayniqsa iqtisod va sport sahifasida keng qo‘llanishi ma'lum bo‘ldi. Sport jurnalistikasida son so‘z turkumining o‘rni o‘ziga xos. Unda ochko, gol, sekund va hokazolar haqida ma'lumot beruvchi xabarlarda o‘ziga xos stilistik vazifani bajaradi. Yangi sport rekordi haqidagi qisqa xabarda son so‘z turkumi ustunlik qilsa, intervyu yoki ocherkda ikkinchi darajali o‘ringa tushib qoladi. Eron gazetalarida son so‘z turkumi ham son orqali, ham so‘z orqali ifodalanadi. Bundan tashqari aralash ifodalanish holatlari ham mavjudligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

(تومان میلیارد رازه۱۰۰) ریال تریلیون یک نیازمند اقتصادی، رشد صد در یک هر است گزاری سرمایه

Iqtisodiy o‘sishning har bir foizi uchun bir trillion riyol (yuz ming milliard tumon) sarmoya zarur.

Bunday holatlar asosan katta miqdorni ifodalashda foydalaniladi. Bunday ifoda usuli ma’lumotni qabul qilishni osonlashtiradi. Vaqt ko‘rsatkichi zamonaviy hayotni aks ettiruvchi gazeta matnining ajralmas qismi hisoblanadi. Eron gazeta matnlarida xronometrajga alohida e'tibor qaratiladi, chunki ularning asosiy qismi



xabar va yangiliklardan iborat. “Vaqt” tematik guruhida vaqt o‘lchovi uchun دقيقه “daqiqa”,ساعت “soat”, روز “kun”, هفته “hafta”,ماه “oy”,سال “yil” kabi so‘zlar qo‘llanadi, lekin ularning qo‘llanish doirasi chegaralangani kuzatiladi. سال “yil” so‘zi son bilan birikib, yil hisobini anglatib kelgan birikmalar gazetaning deyarli barcha sahifalarida faol qo‘llanadi. Masalan, siyosiy sahifada biror siyosiy muzokara yoki uchrashuv vaqti, biror siyosiy jarayonlar vaqti, siyosiy kelishuvlar sanasini ifodalashga xizmat qiladi.

ما سعودی هم‌سایه ۲۰۱۳ سال در تواف ق زمان از :گ فت ک شورمان خارجه امور وزیر ر ا ست ت ر س یده

Tashqi ishlar vaziri: 2013 yildagi kelishuvdan so‘ng Saudiya Arabistoni cho‘chib qolgan.

Sport sahifasida biror sport musobaqasi o‘tkaziladigan vaqtni ifodalab keladi:

ب ازی ب رن اب ئو در زی دان ک نار در ۲۰۰۶ ت ا ۲۰۱۱ های سال ب ین ک ه ک ارل وس روب رت و گ فت مادری د رئ ال جدی د سرمرب ی زی دان، ال دی ن زی ن ب اره در ک رد...

2006-2011 yilar mobaynida Zidan bilan birgalikda Real Madridda to‘p surgan Roberto Karlos Real Madriding yangi bosh murabbiyi Zayniddin Zidan haqida dedi.....

Iqtisod sahifasida biror anjuman bo‘lib o‘tgan vaqt yoki biror iqtisodiy jarayon vaqtini ifodalashga xizmat qiladi:

شد ری حت ش ک شور ک ل ۱۳۹۵ سال ب ودجه لای حه جزئ یات

Mamlakatning 1395 yil budjet loyihasi tafsilotlariga sharh berildi.

Ma’lumki, Eronda hijriy yil hisobi yuritiladi. Gazeta matnlarida mamlakatning ichki hayotiga oid materiallar yoritilgan maqolalarda hijriy yil hisobi, xalqaro maydonda yuz bergan voqyealarni yoritishda melodiy yil hisobidan foydalaniladi.

ن‌ي‌رت‌هم،۱۳۹۳ سال در مرکزی ب انـك د سـ تاوردهای مرور ضمن مرکزی ب انك ک ل رئ یس ک رد ت شری ح را آت ی سال در ب انك ای ن های ب رن امه و اهداف

Markaziy bank bosh direktori Markaziy bankning 1393 yilda qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan tanishish jarayonida mazkur bankning kelasi yildagi eng muhim



dastur va rejalariga izoh berdi.

Hijriy yil hisobi ifodalanganda aksar holatlarda yil to‘liq emas qisqartirilgan shaklda beriladi. Bu ham gazeta matnlarida sonlarning ifodalanishida o‘ziga xos uslubiy jihat sanaladi.

بـ یش ۹۵ سال در ک ارگ ران د سد تمزد اف زای ش :گ فت اج تماعی رف اه و ک ار ت عاون، وزی ر بـ ود خواهـ ت ورم ذ رخ از

Mehnat va ijtimoiy ta'minot vaziri to‘qson beshinchi yilda ishchilar ish haqining oshishi inflyasiya darajasidan yuqoriroq bo‘lishini aytdi.

Sonlarning دق یقه “daqiqa” so‘zi bilan kelish holatlari, asosan, sport sahifasiga xos.

مـنا سب بـ سـ یار موق ع یت ی ک صاحب هاژاپ نی آخر مداف ع ا شد ت باه بـ ا ۳۵ دق یقه در مطهری شد

O‘yinning o‘ttiz beshinchi daqiqasida yaponlar himoyachisi xatosi tufayli Mutaharriy juda yaxshi pozitsiyani egalladi.

Gazeta matnlarida sonlarning ساعت “soat”, هـ ف ته “hafta” so‘zlari bilan kelish holati kam uchraydi. Buni gazeta matnlari uslubiga yaqin bo‘lmagan, mazkur uslubda qo‘llanishi chegaralangan holatlar qatoriga kiritish mumkin.

در بـ عد و بـ رویـ م آماذ و آق ای دیـ دار بـ ه ویـ ن وق ت بـ ه صـ بح ذ یم و ۱۱ ساعت ک ه بـ ود ق رار شود ق رائـ ت من و موگ ریـ نی خاذ م سوی از مـ شد ترک بـ یاذ یه ذ یم و ۱۲ الـ ی ۱۲ ساعت حدود

Vena vaqti bilan soat 11:30da janob Amano bilan uchrashuv va taxminan soat 12dan 12:30gacha Mogerini xonim va men qo‘shma bayonotni o‘qib berishimizga kelishilgan.

“Vaqt” tematik guruhiga oid birikmalarning gazeta matnlarida qo‘llanishi, uning informatsion vazifasini namoyon qilishga xizmat qiladi. Gazetada qo‘llanuvchi vaqtni anglatgan birikmalar aksariyat hollarda uzoq tarixni emas, yaqin o‘tmishni ifodalaydi. Vaqtni ifodalash kundalik gazetaning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lishiga qaramay, pul miqdori ifodalanishi ham gazeta matnlarida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Buni esa hozirgi kunda iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan asoslash mumkin.



Gazeta matnlarida son pul hisobini ifodalashda qiymat (pul) hisobi uchun ishlatiladigan so‘zlar bilan birikib keladi. Hayotning turli tarmoqlarini pul orqali hisoblash qaysidir ma'noda “iqtisodiy psixoligiya” jihatlaridan birini namoyon etadi. Gazeta matnlariga turli mablag‘ miqdori kiritilishi, shu bilan birga turli vaqt oralig‘ida harajat va foyda ko‘rsatkichlarini taqqoslashga imkon yaratuvchi mazkur mablag‘larning foizli ko‘rsatkichiga axborotning umumiy tijoratlashtiruvi belgisi sifatida qaralishi mumkin [3:50]. Gazeta matnlarida pul hisobini keltirishda aniqlikka to‘la rioya qilish kerak, aks holda, berilayotgan ma’lumot iqtisodiy abstraksiyaga aylanib qoladi.

آزاد ت حریم رف ع با ایران شده بلوکه ارزی مناب ع دلار می یارد ۳۲ ای نکه بیان اب وی گفت ا ست، شده

U sanksiyalar olib tashlanishi bilan Eronning muzlatib qo‘yilgan 32 milliard dollarlik valyutasi muzlatishi bekor qilingani haqida to‘xtalib dedi.

Gazeta materiallarida pul hisobi kiritilishi mahsuldorligi asosan yil boshi va yil o‘rtasidagi gazeta sonlarida uchraydi. Fikrimizcha, bu davrda mamlakat yoki biror mintaqa byudjetini rejalashtirish bilan bog‘liq.

Gazeta matnlarida son o‘lchov birligini bildiruvchi so‘zlar bilan birikib keladi. O‘lchov guruhiga uzunlik, masofa, vazn, hajm va h. kiradi. Gazeta matnida o‘lchov insonning dunyoni tadqiq etish, uni o‘lchashga intilishini ifodalaydi. Mazkur guruhda eng ko‘p uchraydigan o‘lchanadigan obeykt foiz ko‘rsatkichi ekanligi aniqlandi.

Son og‘irlik o‘lchov birligini anglatuvchi so‘zlar bilan birikib kelganda og‘irlik o‘lchovi birligini anglatuvchi گرام “gramm”, کیلو “kilogramm”, تن “tonna”, بارل “barrel” kabi so‘zlar qatnashadi.

تومان می یارد 3600 تقریباً رکتش فروش محتوی مس تن هزار 259 تولید با 94 سال در شد

To‘qson to‘rtinchi yilda 259 tonna mis ishlab chiqarish orqali kompaniyaning sotuv hajmi taxminan 3600 milliard tumonni tashkil etti.

Son masofa o‘lchov birligini anglatuvchi so‘zlar bilan birikib kelganda masofa



o‘lchov birligini anglatuvchi مـ تر, یـلومـ تر کـ kabi so‘zlar qatnashadi.

۱۷۳ گـذشـته، ماهـ ۲۰ طـی و ا ست بـ وده مـ ترو ما دغدغه مهم تریـن نـ قل و حمل حوزه در امکـ رده ایـ جاد مـ ترو تـ ونـل کـ یـلومـ تر

Transport sohasida eng katta muammoyimiz metro bo‘lgan, o‘tgan 20 oy ichida 173 kilometrlik metro tunellarini qazidik.

Yuqorida keltirilgan so‘zlardan tashqari boshqa o‘lchov birligini bildiruvchi so‘zlar bilan ham birikib kelish holatlari mavjud. Iqtisod sahifasida sonlarning foiz bilan birikib kelishi ham faol qo‘llanuvchi holatlardan biridir. Har qanday iqtisodga oid ma’lumotda foiz ko‘rsatkichi albatta ko‘rsatiladi. Bir statistik xarakterga ega maqola deyarli son va foiz birikmasidan iborat bo‘lish holatlari juda ko‘p uchraydi.

Gazeta matnlarida sonlar yuqorida sanab o‘tilgan guruhdagi so‘zlar bilan bir qatorda, sanoq so‘zlar bilan ham birikib kelish holatlari uchraydi. Bunda sonlar sanalayotgan obyekt yoki subyekt nomlarini ifodalab kelgan so‘zlar bilan birikib keladi. Bunday holatlarda son so‘z turkumi qatnashgan gazeta sahifasi mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Sport s’hifasida son گـل “gol”, مدال“medal”, iqtisod sahifasida نـواگ “vagon”, siyosiy sahifada esa کـ شور “mamlakat”, مجـلس“majlis”, رای “ovoz” kabi so‘zlar birikib keladi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin:

ا ست شده بـ سـ ته بـ رف کـ ولاک عـ لت بـ ه ا سـ تان رو سـ تای ۹۵۸ یـارتـ باطـ راه

Viloyatdagi 958 qishloqning aloqa yo‘llari qor uyumlari tufayli yopildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, hozirgi kunda gazeta matnlarida sonlardan foydalanish juda keng tus olmoqda. Zamonaviy gazeta aniq faktlarga asoslangan, o‘quvchiga konkret ma’lumot berishga qaratilgan maqolalar bilan xarakterlanadi. Lekin hozirgi kun qisqalik va aniqlikni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqib, oxirgi yillarda sonlar qatnashgan ma'lumotlarni infografika orqali ifodalash rivojlanmoqda. Hatto infografika jurnalistikaning yangi janri sifatida talqin qilinmoqda.

Infografika diagramma, grafika, jadval, gistogramma, shkala kabilarni o‘z



ichiga oladi. Ma’lumotni yuqorida sanab o‘tilgan vositalar orqali yetkazish katta hajmdagi ma'lumotni tez fursatda qabul qilishni ta’minlaydi. A.V.Antonov ta’kidlaganidek “infografika konseptual ma'lumot (informatsiya)ni tarqatishda universal vosita sanaladi” [1]. Gazeta matnlarida sonlarni diaxron ravishda o‘rganish jarayonida, gazeta matni davr bilan hamnafas, o‘sha davrga moslashgan holda takomillashib borayotgani ma’lum bo‘ladi. O‘quvchi statistik ma'lumotni qamrab olgan maqolani o‘qish davomida ketma-ket keltirilgan sonlarni o‘qib ularni qabul qilishi mushkul. Lekin shu ma’lumotni infografika orqali berilgan shaklda ko‘rsa uni qabul qilishi tezlashadi. Eron gazetalarida infografika asosan statistik xarakterga ega maqolalarda keng qo‘llaniladi. Infografikaning yana bir afzalligi shundaki, u orqali ma’lumot yetkazish gazeta sahifasining kam hajmini egallaydi. Agar infografika orqali berilgan ma'lumot jumla orqali ifodalansa, undan ko‘proq hajmni egallashi turgan gap. Hozirgi tez sur'atlarda rivojlanayotgan davrda o‘quvchining uzun maqolani oxirigacha o‘qib chiqishiga ham hyech kim kafolat bermaydi, demak ma'lumot to‘liq qabul qilinmaydi. Shu jihatdan kelib chiqib, gazeta matnlarida sonlar qatnashgan birikmalarni ifodalashda infografikadan foydalanish kundan-kunga rivojlanmoqda. Quruq statistik ma'lumotni qamrab olgan maqola o‘quvchi uchun u darajada qiziqish uyg‘otmasligi mumkin. Lekin infografika orqali ifodalangan ma’lumot qiziqarli hamda ko‘pchilikni o‘ziga jalb qilish xususiyatiga ega. Shu bilan birga, infografika ommaviy axborot vositalarida ma’lumot yetkazishning eng samarali usullaridan ekanligini va kelajakda bu yo‘nalishni yanada rivojlantirish zarurati borligidan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash lozimki, publitsistik uslubda sonning uslubiy xususiyatlari namoyon bo‘lishi passiv, funksional xususiyatlari esa aktivligini kuzatish mumkin. Gazeta matnlarida son o‘zning birlamchi vazifasi, ya'ni aniq, obyektiv axborotni yetkazish bilan bir qatorda, ekspressiv vazifani ham bajaradi. Gazeta matnlarida sonlarning qo‘llanishi boshqa uslublarga nisbatan faol sanaladi. Bu faollik sonlarning axborot berish vazifasi bilan izohlanadi. Gazeta-publitsistik uslubida informativlik bilan bir qatorda, emotsional-ekspressivlik ham son so‘z



turkumiga xos xususiyat hisoblanadi.

FOYDALANILOGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Антонов, А. В. Информация: восприятие и понимание. – Киев: Наукова думка, 1988.

2. Накорякова К. Цифра в публицистическом тексте / К.М.Накорякова. URL: http://www.lenizdat.ru/a0 /ru / pm1/c-1027135-0/html.

3. Симакова С.И. Цифровые обозначе¬ния как элемент газетного текста (на примере «Челябинского рабочего»): дис. … канд. филол. наук. – Челябинск, 2009. – С.69.

4. Тертычный А. А. Цифра – материя тонкая // Журналист. – 2006. № 1. – С.76; Шостак М.И. Репортер: профессионализм и этика. – М.: Изд-во им. Сабашниковых, 1999. – С. 47.

